



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK TIZIMIDA XORIJIY SARMOYALARNI JALB ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Qulliyev Anvar Zayniddinovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17312552>

Anotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida xorijiy sarmoyalarni jalb etishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakat bank sektorining hozirgi holati, raqamli transformatsiya jarayoni va fintech ekotizimining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Bank aktivlari o'sish dinamikasi, xorijiy kapital ulushi va moliyaviy texnologiyalar asosidagi xizmatlar ko'lamining kengayishi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb etishda uchrayotgan asosiy muammolar — tartibga solish tizimi, shaffoflik, texnologik infratuzilma va kiberxavfsizlik bilan bog'liq to'siqlar — ham yoritilgan. Natijada, O'zbekiston bank tizimida sarmoyaviy jozibadorlikni oshirish uchun raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va fintech hamkorliklarini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, xorijiy sarmoya, innovatsion yondashuv, fintech, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, O'zbekiston, investitsiya muhiti, xalqaro hamkorlik.*

Raqamli iqtisodiyot bank tizimi uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Axborot texnologiyalari, fintech innovatsiyalari, internet-infratuzilma va raqamli to'lov tizimlari bank faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston ham ushbu tendensiyalardan chetda qolmayapti: davlat strategiyalari, regulyator siyosati va moliyaviy sektor innovatsiyalari xorijiy sarmoyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan muhim omillarga aylanmoqda.

Maqolaning maqsadi — O'zbekiston bank tizimida xorijiy sarmoyalarni jalb etishda innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish, amaliy imkoniyatlar va muammolarni ko'rsatish hamda takliflar berish.

Bank sektori va fintech sohasining hozirgi ko'rinishi

O'zbekistonning bank sektori so'ngi yillarda barqaror o'sishda, raqamli xizmatlar esa tobora kengaymoqda. 2017 yildan boshlab mamlakatda bank tizimini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Hozirda O'zbekistonda 33 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda, ulardan 13 tasi davlat ulushiga ega, qolganlari esa xususiy yoki xorijiy kapital asosida ishlaydi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil yakunida bank aktivlari hajmi 800 trillion so'mdan oshgan, bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan qariyb uch baravar ko'pdir¹. So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlari — mobil banking, onlayn kreditlash, to'lov tizimlari va masofaviy hisob-kitob tizimlari — aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirdi. Fintech sohasida esa 2020 yilda atigi 30 ga yaqin kompaniya mavjud bo'lgan bo'lsa, 2025 yil holatiga

¹ UzDaily. (2025, September). *O'zbekiston bank tizimining jami aktivlari 863,1 trillion so'mga yetdi.* <https://uzdaily.uz>

kelib ularning soni 100 dan oshdi. Ushbu kompaniyalar elektron to'lov tizimlari, onlayn sug'urta, raqamli investitsiyalar, va mikroqarzarlar sohalarini qamrab olgan. Raqamli transformatsiya tufayli 2024 yilda bank kartalari soni 47 milliondan oshib, mamlakat aholisi soniga tenglashdi, elektron to'lovlarning umumiy hajmi esa 1 kvadrillion so'mdan ortiqni tashkil etdi (Trend News Agency, 2024). Shu tariqa, O'zbekiston moliya sektorida raqamli iqtisodiyot tamoyillari chuqur ildiz otmoqda va xorijiy sarmoyadorlar uchun yangi imkoniyatlar maydoni yuzaga kelmoqda.

2025 yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimining jami aktivlari 863,1 trillion so'mga yetdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan qariyb 18 foizga o'sishni anglatadi. Ushbu o'sish mamlakatda olib borilayotgan moliyaviy liberallashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosatining natijasidir. Bank aktivlari tarkibida kredit portfeli eng katta ulushni egallaydi — 2024 yil mart holatiga 472,41 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan sezilarli o'sish qayd etdi. Shuningdek, aktivlar tarkibida xorijiy valyutadagi mablag'larning ulushi 44 foiz atrofida bo'lib, bu xalqaro moliya operatsiyalari hajmining ortib borayotganidan dalolat beradi. Banklar kapitali ham barqaror o'sishda davom etmoqda — 2025 yil sentyabr holatiga jami kapital 128,8 trillion so'mni tashkil etib, yillik o'sish 21 foizga teng bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekiston bank tizimi iqtisodiyotdagi eng yirik moliyaviy vositachiga aylanganini, raqamli texnologiyalar, ochiq bank amaliyoti va xorijiy kapital integratsiyasi tufayli uning barqarorligi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.²

Innovatsion yondashuvlar xorijiy sarmoyalarni jalb etish

O'zbekiston bank tizimida xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonida innovatsion yondashuvlar muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda bank sektorida yangi texnologiyalarni joriy etish, fintech ekotizimini kengaytirish va xalqaro investorlarga qulay muhit yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion yondashuvlarning markazida, avvalo, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, ochiq bank tizimi (open banking), sun'iy intellekt (AI) asosida moliyaviy tahlil, "smart contract"lar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish kabi zamonaviy yo'nalishlar turadi. Bu yondashuvlar xorijiy investorlar uchun O'zbekiston moliya bozorini shaffof, xavfsiz va samarali qilishga xizmat qilmoqda.

2025 yilda O'zbekistonda "regulyator sandbox" tizimi joriy qilinib, fintech va investitsion startaplar uchun innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish imkoniyati yaratildi (Maili.uz, 2025). Mazkur mexanizm xorijiy sarmoyadorlarga yangi texnologiyalarni huquqiy xavf-xatarlarsiz sinovdan o'tkazish va ularni mahalliy moliyaviy tizimga integratsiya qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, Prezident qaroriga muvofiq, 2025–2027 yillarda bank sektorini raqamlashtirish strategiyasi doirasida xorijiy investorlar bilan hamkorlikda fintech laboratoriyalarini tashkil etish, moliyaviy xizmatlarni sun'iy intellekt asosida boshqarish va "digital banking" litsenziyalarini joriy etish rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 2024–2025 yillarda O'zbekiston fintech sohasiga 260 million AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etildi, bu 2023 yilga nisbatan to'rt baravar ko'pdir³.

Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida xalqaro to'lov tizimlari va raqamli investitsion platformalarni integratsiya qilish yo'nalishida ham muhim natijalarga erishilmoqda. Masalan, Ravnaq Bank va Kapital Bank tomonidan joriy etilgan kripto-kartalar loyihasi mamlakat

² UzDaily. (2024, March). *O'zbekiston banklarining kredit portfeli 472,41 trillion so'mga yetdi*. <https://uzdaily.uz>

³ PwC Uzbekistan. (2024). *Banking and Fintech Outlook 2024: Uzbekistan Market Insights*. Tashkent: PwC.

tarixida ilk bor blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlarni bank tizimiga kiritdi⁴. Bu nafaqat moliyaviy xizmatlarni tezlashtirdi, balki xorijiy investorlar uchun mamlakatni innovatsion texnologiyalarni qo'llaydigan ishonchli moliya markaziga aylantirdi. Shu bilan birga, xalqaro banklar bilan hamkorlikda "open API" tizimlarini ishlab chiqish, chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma banklar sonini oshirish, elektron investitsiya platformalari orqali to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratish kabi tashabbuslar ham xorijiy sarmoyalar oqimini rag'batlantirmoqda.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi shundaki, ular nafaqat sarmoyadorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki O'zbekistonning global moliyaviy tizimdagi ishtirokini mustahkamlaydi. Masalan, xalqaro tajribaga asoslanib ishlab chiqilgan "Fintech Uzbekistan Strategy-2030" dasturi doirasida elektron identifikatsiya, raqamli valyutalar, investitsion platformalar va kiberxavfsizlik tizimlari bo'yicha xalqaro standartlar joriy etilmoqda⁵. Shu orqali O'zbekiston moliya bozorining raqamli infratuzilmasi global sarmoyadorlar talablariga moslashmoqda. Bundan tashqari, davlat tomonidan xorijiy sarmoyadorlar uchun soliq imtiyozlari, investitsiya kafolatlari va "green finance" loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu ham investitsion jozibadorlikni oshirmoqda⁶.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar O'zbekiston bank tizimini an'anaviy xizmatlardan raqamli moliyaviy ekotizimga aylantirmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar endilikda nafaqat bank kapitaliga, balki fintech startaplar, raqamli to'lov tizimlari va "open banking" loyihalariga ham faol sarmoya kiritmoqda. Shu sababli, O'zbekiston moliyaviy sektori xalqaro investitsiyalar oqimi uchun Markaziy Osiyodagi eng istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bunday yondashuvlar mamlakatni innovatsion moliyaviy markazga aylantirish yo'lida muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston bank va fintech statistikasi⁷

Quyidagi jadval O'zbekiston bank tizimi va fintech sohasidagi ba'zi muhim ko'rsatkichlarni taqqoslaydi:

Ko'rsatkich	Vahti	Miqdori
Bank sektori aktivlari	1 mart 2024	648.62 trillion so'm
Kredit portfeli	1 mart 2024	472.41 trillion so'm
Bank kapitali	1 mart 2024	99.05 trillion so'm
Fintech kompaniyalar soni	2018 vs 2025	~ 24 → ~ 103
Xorijiy sarmoya fintechga	2025	~ US\$ 260 million
Venture investitsiyalar hajmi (startaplar)	2024	~ US\$ 17.5 million (38 ta deal)
Jami bank aktivlari o'sishi	Sentabr 2024 → Sentabr 2025	~ 731.6 → 863.1 trillion so'm (~ 18% nominal)

Muammolar va to'siqlar

⁴ IMF. (2024). *Republic of Uzbekistan: Financial System Stability Assessment*. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

⁵ Asian Development Bank (ADB). (2023). *Innovative Finance and Digital Banking in Central Asia*. Manila: ADB Publications

⁶ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). *World Investment Report 2024: Investment in the Digital Economy*. Geneva: UNCTAD.

⁷ Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari*. Toshkent: CBU. <https://cbu.uz>

O'zbekiston bank tizimida xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonida bir qator tizimli muammolar va to'siqlar mavjud. Eng avvalo, moliyaviy bozorlarning yetarlicha chuqurlashmaganligi va kapital bozorining sust rivojlanishi xorijiy investorlar uchun cheklov bo'lib qolmoqda. Ba'zi banklarda korporativ boshqaruv tamoyillarining to'liq joriy etilmagani, shaffoflik va hisobdorlikning past darajasi ham investor ishonchini pasaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish jarayonining sustligi ham xorijiy kapital uchun risk omil hisoblanadi. Raqamli infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmagani, kiberxavfsizlik tizimining kuchsizligi va texnologik modernizatsiya xarajatlarining yuqoriligi esa raqamli bank xizmatlarini keng miqyosda joriy etishda to'siq bo'lib turibdi. Bundan tashqari, valyuta siyosatidagi o'zgaruvchanlik, xalqaro tranzaksiyalar uchun tartibga solish jarayonlarining murakkabligi va ayrim byurokratik talablar xorijiy sarmoyadorlar uchun operatsion muhitni qiyinlashtiradi. Shu sababli, bank tizimining barqaror raqamli transformatsiyasini ta'minlash va xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish uchun tartibga solish islohotlarini chuqurlashtirish, huquqiy aniqlikni mustahkamlash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi⁸.

Takliflar

O'zbekiston bank tizimida xorijiy sarmoyalarni jalb etish samaradorligini oshirish uchun bir qator strategik va innovatsion takliflarni amalga oshirish zarur. Avvalo, xalqaro moliyaviy standartlarga to'liq moslashgan tartibga solish tizimini shakllantirish va banklarning shaffofligini oshirish xorijiy investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Shu bilan birga, "open banking" platformalarini keng joriy etish, fintech startaplarga soddalashtirilgan litsenziyalash tartibini qo'llash va raqamli to'lov tizimlarini integratsiyalash xorijiy texnologik investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar uchun soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari mexanizmini joriy etish ham investitsion oqimni rag'batlantiradi⁹. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari, masalan, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) yoki Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) bilan qo'shma loyihalarni kengaytirish orqali risklarni diversifikatsiya qilish mumkin. Hududiy bank infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, raqamli bank filiallarsiz xizmat ko'rsatish markazlarini yaratish orqali xorijiy investorlar uchun mamlakat moliyaviy tizimining innovatsion salohiyati namoyon etiladi. Nihoyat, kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro moliya boshqaruvi va fintech texnologiyalari bo'yicha malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish O'zbekiston bank tizimining global raqobatbardoshligini kuchaytiradi va xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibador moliyaviy muhitni shakllantiradi¹⁰.

Xulosa

O'zbekiston bank sektori raqamli iqtisodiyot sharoitida sezilarli sur'atda rivojlanmoqda. Bank aktivlarining o'sishi, fintech kompaniyalarining soni, "Uzum" kabi innovatsion loyihalarning unicorn statusiga erishishi — bular barcha xorijiy investorlar uchun jozibador signal. Innovatsion yondashuvlar: open banking, regulyator sandbox, fintech mahsulotlari, kiberxavfsizlik va malakali kadrlar — sarmoyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Agar huquqiy muhit va infratuzilma to'liq moslashtirilsa va investorlar uchun risklar kamaytirilsa, O'zbekiston bank tizimi orqali global darajada xorijiy kapital oqimi sezilarli

⁸ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). *World Investment Report 2024: Investment in the Digital Economy*. Geneva: UNCTAD.

⁹ OECD. (2023). *Enhancing Financial Inclusion through Digital Transformation in Emerging Markets*. Paris: OECD Publishing

¹⁰ World Bank. (2024). *Uzbekistan Financial Sector Assessment Report*. Washington, D.C.: World Bank Group

darajada ortishi mumkin. Innovatsiyalar bank faoliyatining samaradorligi, xizmat ko'rsatish tezligi, raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Asian Development Bank (ADB). (2023). Innovative Finance and Digital Banking in Central Asia. Manila: ADB Publications.
- 2.Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent: CBU. <https://cbu.uz>
- 3.IMF. (2024). Republic of Uzbekistan: Financial System Stability Assessment. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
- 4.Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan. (2025). Raqamli iqtisodiyot va moliya sektori rivojlanish tendensiyalari. Toshkent.
- 5.OECD. (2023). Enhancing Financial Inclusion through Digital Transformation in Emerging Markets. Paris: OECD Publishing.
- 6.PwC Uzbekistan. (2024). Banking and Fintech Outlook 2024: Uzbekistan Market Insights. Tashkent: PwC.
- 7.United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). World Investment Report 2024: Investment in the Digital Economy. Geneva: UNCTAD.
- 8.UzDaily. (2024, March). O'zbekiston banklarining kredit portfeli 472,41 trillion so'mga yetdi. <https://uzdaily.uz>
- 9.UzDaily. (2025, September). O'zbekiston bank tizimining jami aktivlari 863,1 trillion so'mga yetdi. <https://uzdaily.uz>
- 10.World Bank. (2024). Uzbekistan Financial Sector Assessment Report. Washington, D.C.: World Bank Group